

vazifalarini kengaytirishimiz hamda ularga qo'yilgan ba'zi bir cheklovlarni yo'qotishimiz lozim. Zero, himoya huquqi muqaddasdir. Bu huquqqa hech qanday to'siqlar bo'lmasligi va bu orqali jamiyat a'zolari qonuniy jihatdan himoyalana olishlari darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Неъматов, Жасур. "Purpose and features of methodology for interrogation in criminal proceedings." Общество и инновации 1.2 (2020): 251-259.

2. Неъматов, Жасур, and Бектурсун Муродкосимов. "Судлар фаолиятини рақамлаштириш—Ўзбекистоннинг халқаро рейтинглардаги ўрнини яхшилашга хизмат қилади." Актуальные вопросы и перспективы цифровизации судебно-правовой деятельности 1.01 (2022): 131-138.

M.E.MAHAMMADALIYEVA¹⁰⁶

ADVOKATLIK QASAMYODI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA

Mamlakatimiz huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidan dadil odimlab borar ekan, bu borada ko'zlangan maqsadga erishish, avvalo, huquq tizimida keng va samarali islohotlarni amalga oshirishni, fuqarolarning huquqiy bilimi va savodxonligini kengaytirishni, shuningdek, ularni malakali yuridik yordam bilan har qachongidanda ko'ra to'liq va odilona ta'minlashni taqazo etadi. Chunonchi, huquqiy demokratik davlatda fuqarolar huquqini himoya qilish mazmun jihatidan davlat siyosati darajasidagi muhim masalalar sirasiga kiradi desak mubolag'a bo'lmaydi. Boisi biz bosqichma-bosqich qurib borayotgan fuqarolik jamiyatida fuqarolar davlatga emas, aksincha davlat fuqarolarga xizmat qilmog'i, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlamog'i lozim. Be'jizga asosiy qomusimiz bo'lmish Konstitutsiyamizning 2-moddasida "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor

shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar"¹⁰⁷ degan qoida mustahkamlab qo'yilgan emas.

Darhaqiqat, davlat fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini turli qonuniy usullar bilan ta'minlaydi. Bunda, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar asosiy himoyalash vositalaridir. Himoya qilishning eng muhim asosi esa, avvalo, bu huquqlarni tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda aks ettirishdur. Biroq, huquq va erkinliklarni qonunlarda aks ettirishning o'zi uni amalda ta'minlanishi uchun yetarli emas. Aksincha bu ta'minlanish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xo'sh, fuqarolar o'zlarining qonun bilan belgilab qo'yilgan huquqlarini amalda qanday ta'minlaydilar? Bu borada ularga huquqiy yordam kerak bo'lmaydimi? Albatta, kerak bo'ladi. Bunda advokatlar ularning huquqlari himoyachisi sifatida asosiy rol o'ynaydi. "Konstitutsiyamizning 116-moddasida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlangani; fuqarolar, korxona, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko'rsatishi belgilab qo'yilgani ham fikrimizning tasdig'idir."¹⁰⁸ Ma'lumki, advokat tomonidan ko'rsatiladigan yordam malakali bo'ladi, chunki u oliy yuridik ma'lumotga, shuningdek yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yil mehnat stajiga ega, jumladan, advokatlik tuzilmasida stajirovkadan o'tan va malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

Bu modda ayni paytda advokatlar zimmasiga ulkan mas'uliyat hissini yuklaydi. Negaki, malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun advokat, avvalo, yetarlicha huquqiy bilimga ega bo'lmog'i, o'z vazifasiga vijdonan va xolisona yondashmog'i, har doim adolat, qonuniylik va insonparvarlik tamoyillarini yodda tutmog'i va ularga amal qilgan holda o'z vazifasini ado etmog'i darkor. Bu esa o'z navbatida advokatdan advokatlik qasamyodiga amal qilmoqlikni talab etadi.

"Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasiga ko'ra, advokat tegishli malaka komissiyasining majlisida quyidagi mazmunda qasamyod qilishi mustahkamlab qo'yilgan: "O'z kasbiy burchimni halol va vijdonan bajarishga, inson huquqlari va

¹⁰⁷ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 2-modda, 4-bet. T.: "O'zbekiston", 2018-y.

¹⁰⁸ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 116-modda, 66-bet. T.: "O'zbekiston" 2018-yil.

erkinliklarini hamisha himoya qilishga, advokatlik sirini saqlashga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etishga tantanali qasamyod qilaman".¹⁰⁹ Bundan xulosa chiqadiki, har bir advokat advokatlik maqomini olib o'z kasbiga kirishar ekan, avvalo advokatlik qasamyodini qabul qilar ekan. Qasamyod mazmuniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, advokat uchun belgilangan talablarni guvohi bo'lamiz:

- ✓ kasbiy burchni halol va vijdonan bajarish -
- ✓ inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish -
- ✓ advokatlik sirini saqlash -
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish -

Qasamyodni mazmun jihatidan chuqurroq anglash uchun yuqorida keltirib o'tilgan talablarni milliy qonunchiligimiz nuqtayi nazaridan birma-bir tahlil qilib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Demak birinchi talab: kasbiy burchni halol va vijdonan bajarish. Advokatning kasbiy burchi deganda nimani tushunishimiz kerak? Qonunchilik nuqtayi nazaridan yondashadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan "Advokatura to'g'risida"gi 349-1-sonli qonunining 1-moddasida Advokatura va uning vazifalari belgilab berilgan. Unga ko'ra, "Advokatura - huquqiy institut bo'lib, u advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi. Advokatura O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi."¹¹⁰ Bundan ko'rinadiki, advokatura huquqiy institut sifatida advokatlik va xususiy advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning birlashmasi bo'lib, uning vazifasi shaxslar (shu jumladan, tashkilotlar ham) ga yuridik yordam ko'rsatish. Umumiy ma'noda oladigan bo'lsak, advokatning burchi ya'ni bajarishi kerak bo'lgan vazifasi

¹⁰⁹O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrda "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi 721-1-sonli qonuni.

¹¹⁰O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda "Advokatura to'g'risida"gi 349-1-sonli qonunining 1-moddasi

yuridik yordam ko'rsatishdur.

“Kengroq tarzda sharhlaydigan bo'lsak, advokatlar oldiga barcha jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyalashga, adolatli sudlovni amalga oshirishga, qonuniylikka rioya qilish va uni mustahkamlash, fuqarolarni qonunlarni aniq va so'zsiz bajarish, boshqa shaxslarning huquqlari, obro'si va qadr qimmatiga hurmat ruhida tarbiyalashga ko'maklashish vazifasi yoki qo'yilgan.”¹¹¹ Bundan xulosa chiqadiki advokatning kasbiy burchi mana shundan iborat bo'lib, ushbu vazifasini halol va vijdonan bajarish uchun advokatdan qasamyod qilishi talab etiladi.

Ikkinchi talab: Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish. Ma'lumki, asosiy qomusimiz bo'lmish Konstitutsiyamizning ikkinchi bo'limida fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari belgilab berilgan. Zotan, mazkur huquqlar negiz bo'lib xizmat qilsa, fuqarolarning mana shu huquqlari negizidan kelib chiqadigan boshqa ko'plab huquqlari mavjud bo'lib, ular tegishli qonun hujjatlarida aniq qilib belgilab qo'yilgan. Shaxslar bunday huquq va erkinliklarini nafaqat o'zlari, balki malakali yuridik yordam olish yo'li bilan ham himoya qilish huquqiga egadirlar va bunda advokatlar ularning huquqlari hamda erkinliklarini himoya qiluvchi shaxs hisoblanadilar. O'z navbatida, advokatlar ham o'z vazifalariga kirishishlaridan oldin qasamyod qabul qilar ekanlar, ko'rinib turganidek, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qasam ichadilar. Bu talab mohiyatan birinchi talab ya'ni kasbiy burchni halol va vijdonan bajarish bilan ham chambarchas bog'liq. Soddaroq qilib aytganda, uning asosiy qismini tashkil qiladi desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Zero advokat yuridik munosabatlarda o'z himoyasi ostida shaxsning huquqlari va erkinliklarining himoyachisidir va advokatning mazkur faoliyat bilan shug'ullanishdagi asosiy vazifasi ham aynan shudir. Shu bois ham inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish talab darajasida qasamyodda ham aks etgan.

Advokatlik qasamyodi mazmunini tashkil etgan keyingi talab bu advokatlik siridir. Advokatlik faoliyatida advokatlik siri alohida muhim o'rin tutganligi bois mazkur tushunchaning mazmun-mohiyati turli olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, huquqshunos olim Y.S. Pilipenko bu haqda shunday deydi: “Sir - muayyan faoliyat haqidagi ma'lumotlarning

¹¹¹ M: I.G. Nikonov, X.Abzalova, U. Zakirova. Advokatura. Darslik. T.;TDYU, 2019. 35-bet.

boshqa shaxslar tomonidan xabar topilmasligi. Sir ma'lumot bilan bog'liq tushunchalar, advokatlik siri esa shunchaki ma'lumot emas, balki advokat yuridik yordamining ishonchliligi hisoblanadi..."¹¹²

Yana boshqa bir olim A.F. Koni o'z nazariyasida: "Mijozning siri bu uning aybliligi haqidagi ma'lumotdir va bu sirni biladigan ikkinchi shaxs faqat advokat bo'lishi kerak. Sirning boshqa shaxslarga ma'lum bo'lishi sud protsessidagi mag'lubiyat kafolotidir",¹¹³ degan fikrlarni ilgari suradi. Yuqoridagi olimlarning advokatlik siriga oid nazariyalaridan ham advokatning faoliyatida u qanchalik muhimligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Shu bois ham O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi qonunining 9-moddasida bu masalaga oid qoida mustahkamlab qo'yilgan. Chunonchi unda: "Advokat advokatlik sirini saqlashi shart. Advokatlik siri jumlasiga ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) advokatdan yordam so'rab murojaat etganligining o'zi, ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) yordam so'rab murojaat etgan masalalar, advokatdan ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) olgan maslahatlar, nasihatlar va tushuntirishlarning mohiyati, advokatning ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) bilan o'tkazgan suhbatida to'xtab o'tilgan barcha masalalar kiradi..."¹¹⁴ deb belgilab qo'yilgan.

Bundan xulosa chiqadiki, advokat o'ziga ishonch bildirayotgan shaxsning huquq va erkinliklarini lozim darajasida vijdonan himoya qilishida u aytgan ma'lumotlarni saqlashi advokatning kasbiy faoliyatiga qo'yilgan talablardan biridir. Shu bois ham advokatlik siri yuqoridagi qonunning alohida moddasida hamda advokatlik qasamyodida o'z aksini topgan.

Advokatlik qasamyodida keltirilgan navbatdagi talab bu advokatning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etishidir. Bu talab ham, shubhasiz, advokatlik faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Boisi advokat yuridik ma'lumotga ega shaxs sifatida, avvalo,

¹¹² Информационная безопасность деятельности адвоката и адвокатская тайна. Гусятников.

П.П, Гусятникова. П.П. <https://cyberlenika.ru/article/informatsionnaya-bezopasnost-deyatelnosti-advokata-i-advokayskaya-tayna/viewer>

¹¹³ Адвокатская тайнаю А.А. Томских. Вестник магистратуры, научный журнал. 2020. No 91 (108), страница 44.

¹¹⁴ O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrdagi "Advokatura to'g'risida"gi 349-1-sonli qonunining 9-moddasi

o'zi mamalakatimiz qonunlariga amal qilishi, shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishda qonuniy usul va metodlardan foydalanishi, qonunchilik doirasidan chetga chiqmasligi, bir so'z bilan aytganda, qonuniylik prinsipiga rioya etishi darkor. Chunonchi, "Advokatura to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida: "Advokatura o'z faoliyatini qonun ustuvorligi prinsipi asosida amalga oshirishi"¹¹⁵ shuningdek "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi qonunning 2-moddasida esa: "Advokatlik faoliyatining asosiy prinsiplaridan biri sifatida qonunchilikda man qilinmagan usullar va vositalarni qo'llash"¹¹⁶ tamoyili mustahkamlab qo'yilgan. Har ikki qonundagi prinsipga e'tibor qaratadigan bo'lsak, umumlashgan holda qonuniylik tamoyilini nazarda tutilayotganini guvohi bo'lamiz.

"Qonuniylik tamoyili advokaturaga nisbatan qo'llanilganda advokatlar tomonidan, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanuvchi advokatlik faoliyati va advokatura to'g'risidagi barcha qonunchilikka va boshqa advokatlik faoliyatini muvofiqlashtiruvchi qonunlar va O'zbekiston Respublikasining boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlariga rioya etilishida o'z ifodasini topadi."¹¹⁷

Demak milliy qonunchiligimizdagi advokatlik qasamyodida advokatga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etish talabi qo'yilganligi yuqoridagi fikrlarga monand bo'lib, qonuniylik prinsipini nazarda tutar ekan va bu ham advokatning kasbiy faoliyatida asosiy o'rinda turadi. Shu bois ham advokat o'z qasamyodida aynan mana shu tamoyilga amal qilishga ham qasam ichadi.

Davlatimiz qonunchiligiga ko'ra, har bir advokat o'z vazifasiga kirishar ekan, tegishli malaka komissiyasi majlisida qasamyod qabul qilishi hamda ushbu qasamyod mazmuni nimalardan iborat ekani haqida yuqorida keltirdik hamda qasamyod tarkibidagi talablarni atroflicha tahlil qilib chiqdik. Shu o'rinda savol tug'iladiki, ya'ni advokat qasamyodi qonunchilik doirasida belgilab qo'yilgani yaxshi, albatta. Biroq bu nega kerak? Bordi-yu advokat o'z qasamyodini buzsa, bu holat biror huquqiy

¹¹⁵ O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda "Advokatura to'g'risida"gi 349-1-sonli qonunining 4-moddasi

¹¹⁶ O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrda "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi 721-1-sonli qonunining 2-moddasi.

¹¹⁷ M: I.G. Nikonov, X.Abzalova, U. Zakirova. Advokatura. Darslik. T,:TDYU, 2019. 16-bet.

oqibat keltirib chiqaradimi?

“Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to’g’risida”gi qonunda advokat qasamyodini aniq qilib belgilab qo’yilgani be’jiz emas, albatta. Boisi u advokat faoliyatining asosini belgilab beradi. Shunday ekan, qasamyodga rioya etmaslik ham huquqiy oqibat keltirib chiqarishi tabiiy hol.

Bu ham qonunchiligimizda aniq qilib belgilab qo’yilgan bo’lib, “Advokatura to’g’risidagi qonunning 14-moddasida advokatning intizomiy javobgarlikka tortilishiga sabab bo’ladigan asoslar yozib qo’yilgan, jumladan advokat qasamyodining advokat tomonidan buzilishi ham ushbu asoslar tarkibidan o’rin olgan.¹¹⁸

Mazkur qonun nuqtayi nazaridan yondashadigan bo’lsak, advokat o’z qasamyodini buzganligi aniqlangan taqdirda unga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo’llanilar ekan, mazkur intizomiy jazo chorasi esa ogohlantirish, advokat litsenziyasini amal qilishini to’xtatib turish yoxud litsenziyasining amal qilishini tugatishdan biri bo’lishi mumkin. Qaysi bir intizomiy choraning qo’llanilishi qasamyodni qay darajada buzganlik oqibatidan kelib chiqib belgilanadi.

Mamlakatimiz qonunchiligidagi advokat qasamyodiga doir qoidalarini o’rganar ekanmiz, shu o’rinda har bir davlat bu borada o’z tajribasiga ega ekanligini inobatga olgan holda, rivojlangan davlatlarning qonunlariga nazar tashlashimiz, ana undan keyin ularning ijobiy taraflarini qonunchiligimizga joriy etish borasida bir qator shaxsiy takliflar berish maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Demak biz tahlil qiladigan dastlabki davlat AQSh. Bilamizki, uning 50 ta shtati mavjud bo’lib, barcha shtatlar o’z qonunlariga ega. Jumladan, rivojlangan shtatlardan biri bo’lmish Florida shtati qonunchiligiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, bu yerda ham advokat o’z faoliyatiga kirishishidan oldin kirish qasamyodini ya’ni advokatlik qasamyodini qabul qilar ekan. O’z navbatida, ushbu qasamyodda advokat o’z faoliyatida doim amal qilishi kerak bo’lgan prinsiplar bayon etilgan. Agar advokat ushbu tamoyillarga bo’ysunmasa yoki uni qasddan buzganlik holati aniqlansa bu advokatni ishdan bo’shatilishiga olib kelishi mumkinligi qayd etiladi. Advokatni ishdan bo’shatilishiga sabab bo’ladigan holatlarni yanada

¹¹⁸ O’zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda “Advokatura to’g’risida”gi 349-1-sonli qonunining 14-moddasi

aniqroq bilish uchun Floridada advokatlar qabul qiladigan qasamyod mazmunini ko'rib chiqamiz:

“Men tanatanali ravishda:

Amerika Qo'shma Shtatlari Konstitutsiyasi va Florida shatati Konstitutsiyasini qo'llab quvvatlashga;

Adliya sudlari va adliya xodimlarini hurmat qilishga;

Menga adolatsiz bo'lib tuyuladigan har qanday da'vo yoki sud jarayonini qo'llab-quvvatlamaslikka, shuningdek, mamlakat qonuni bo'yicha halollik bilan bahslasha oladigan holatlar bundan mustasno;

Menga ishonib topshirilgan vazifani bajarishda faqat haqiqat va sharafiga mos keladigan vositalardan foydalanishga va hech qachon sudyani yoki hakamlar hay'atini biron bir sun'iy yoki yolg'on fakt yoxud qonun bilan chalg'itishga harakat qilmaslikka;

O'z mijozlarimning ishonchini oqlashga va sirlarini saqlashga, ularning roziligisiz ulardan hech qanday tovonni qabul qilmaslikka;

Mening himoyam ostidagi shaxsga qo'yilayotgan ayblovning adolatini talab qilmaydigan, ya'ni unga dahli bo'lmagan faktni biror bir tomon yoki guvohning sha'ni va obro'siga putur yetkazish maqsadida ilgari surmaslikka;

Himoyasiz yoki mazlumni o'z huquqlarini himoya etishimni so'rab qilgan murojaatini rad etmaslikka qasamyod qilaman”¹¹⁹.

Bundan ko'rinadiki, Floridada advokatlik kasbiga yuqori talablar qo'yilgan bo'lib, ushbu talablar advokatlik qasamyodida o'z aksini topgan ekan. Mazkur qasamyodni buzish esa advokatni ishdan bo'shatilishiga olib kelar ekan. Ushbu shtat qasamyodini O'zbekiston Respublikasidagi advokat qasamyodi bilan solishtiradigan bo'lsak, bizda qasamyodni buzganlik odatda intizomiy javobgarlikni keltirib chiqarsa, Floridada advokatni ishdan haydalishiga olib kelishi mumkin ekan. Bizda intizomiy javobgarlikni aynan qaysi turini (ogohlantirish, litsenziyani vaqtincha to'xtatib turish, litsenziyani tugatish) qo'llash esa uni buzganlik darajasidan kelib chiqadi. Yana bir muhim farqli jihati, Floridadagi advokatlik qasamyodi mazmuni. Yuqoridagi qasamyoddan anglashiladiki, unga ancha yuqori talablar qo'yilgan.

AQSH ning boshqa bir shtati, masalan Kaliforniya shtati qonunchiligiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ushbu shtatda advokatlik

¹¹⁹ <https://www.floridabar.org/prof/regulating-professionalism/oath-of-admission/>

qasamyodini qabul qilish shunchaki marosim emasligini guvohi bo'lamiz. Bu Kaliforniyada yuridik amaliyotga kirish uchun talab qilinadi. Bunda advokat mahalliy advokatlar assotsiatsiyasida qasamyod qabul qilishi mumkin. Davlat advokaturasining qabul bo'limi endi avvalgidek bunday marosimlarni o'tkazmaydi. Bordiyu advokat mahalliy advokatlar assotsiatsiyasida o'tkaziladigan marosimda qatnasha olmasa, vakolatli mansabdor shaxs bilan yakkama-yakka tarzda qasamyod qilishni tashkil qilishi mumkin. Bu borada shtatda qasamyod qabul qildirish vakolatiga ega shaxslar ro'yxati tasdiqlangan.

O'ziga xos jihati mazkur shtatda butun dunyoga tarqalgan COVID-19 pandemiyasi davrida advokatlarga vakolatli shaxsdan qasamyodni virtual tarzda bajarishni so'rash imkoniyati yaratib berilgan. Shu o'rinda e'tibor qaratish kerakki, Kaliforniyada advokat Oliy sud tomonidan advokatlikka qabul qilinish uchun sertifikat hamda ro'yxatga olinganlik kartasini olmaguncha qasamyod qabul qila olmaydi.

Shuningdek, agar qasamyod qabul qilishi kerak bo'lgan advokat mamalakat tashqarisida bo'lsa, qasamyodni qabul qilishi uchun qaytib kelishi shart emas. Bunday holatda advokat Qo'shma shtatalar elchisi, vaziri, konsuli, vitse-konsuli yoki konsullik agenti yoki o'sha xorijiy davlatda muhrga ega bo'lgan sudning har qanday sudyasi oldida olinishi mumkin. Qasamyod boshqa davlat yoki xorijiy davlatdagi sudga qabul qilinganda, sudya imzosining haqiqiyligi, sudning mavjudligi va bunda sudya uning a'zosi ekanligi tasdiqlanishi kerak¹²⁰.

Guvohi bo'lganimizdek, Kaliforniyada qasamyod qabul qilish va uni qabul qildiruvchi subyektlar doirasida biznikidan anchagina farqlar mavjud ekan. Jumladan, advokat xorijda bo'lganida mamlakat hududiga qaytmasdan, o'sha joyda qasamyod qilish huquqiga egaligi. Yoxud qasamyodni qabul qilishi mumkin bo'lgan subyektlar doirasining kengligi. Bunda hatto xorij sudyalariga ham vakolat berilgani. Bizning mamalakatda esa, aytganimizdek, advokat tegishli malaka komissiyasida qasamyod topshiradi. Malaka komissiyasining esa "Advokatura to'g'risida"gi qonunga binoan, "hamkasblari orasida hurmatga sazovor bo'lgan advokatlar, shuningdek huquq sohasidagi tajribali mutaxassislar orasidan toq miqdorda Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalarining va adliya

¹²⁰ <https://www.calbar.ca.gov/Admissions/Examinations/California-Bar-Examinations/Attorneys-oath>.

organlarining qo'shma qarorlari bilan tuzilgan tarkibdan iborat bo'ladi."¹²¹

Rossiya federatsiyasi tajribasiga nazar tashlar ekanmiz, bu davlatda ham advokatning qasamyod qilish marosimi tantana bo'lib, yuridik jamiyatga yangi a'zoni qabul qilishning zaruriy sharti hisoblanadi. 2002-yil 31-maydagi 63-FZ-sonli (2017-yil 29-iyuldagi tahrirda) "Rossiya Federatsiyasida advokatura va advokatura to'g'risida"gi Federal qonunining 13-moddasiga binoan, Advokatlar palatasi tomonidan belgilangan tartibda ariza beruvchi malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan shaxs quyidagi mazmunda qasamyod qiladi: "Men advokatlik majburiyatini halol va vijdonan bajarishga, Rossiya Konstitutsiyasi, qonunlari va advokatning kasbiy etikasi kodeksiga amal qilgan holda inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishga tantanali qasamyod qilaman."¹²²

Bundan ko'rinadiki, O'zbekistonda advokat qasamyodini mazmuni va qabul qilish tartibi jihatidan Rossiya tajribasiga juda yaqin, deyarli bir xil desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

Belarus Respublikasi qonunchiligiga murojaat qiladigan bo'lsak, hududiy advokatlar hay'atiga a'zo bo'lgan advokat Belarus Respublikasi Advokatlar assotsiatsiyasi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda quyidagi mazmundagi advokatlik qasamyodini qabul qiladi:

"Men (familyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa)), Belarus Respublikasi Konstitutsiyasiga amal qilgan holda advokatlik majburiyatlarini halol va vijdonan bajarishga, mijozlarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishga tantanali qasamyod qilaman".

Advokat qasamyodining matni advokat tomonidan imzolanadi va Belarus Respublikasi Advokatlar uyushmasi tomonidan belgilangan tartibda saqlanadi.¹²³

Polsha davlati qonunchiligiga razm soladigan bo'lsak, unda ham advokatni Rossiya va Ukrainadagi kabi mazmundagi qasamyodni qabul qilishi va ana undan keyin o'z vazifasiga kirishishini guvohi bo'lamiz. Bu qasamyod "Advokatlik kasbi haqida"gi qonunning 5-moddasida yozib

¹²¹ O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda "Advokatura to'g'risida"gi 349-1-sonli qonunining 14-moddasi

¹²² <https://ru.m.wikipedia.org>

¹²³ «Закон Украины об адвокатуре и адвокатской деятельности»

qo'yilgan.^{124 125 126}

Armaniston Respublikasi tajribasini o'rganar ekanmiz, unda advokatlik faoliyati uchun litsenziyani birinchi marta olishda advokat tantanali ravishda Advokatlar palatasi Kengashida quyidagi mazmunda qasamyod qabul qiladi: "Advokatlik burchini halol va vijdonan bajarishga, mijozning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish, Armaniston Konstitutsiyasi va qonunlariga, advokatlarning odob- axloq kodeksiga rioya etishga tantanali qasamyod qilaman." Ushbu davlatda ham boshqa o'rganilgan davlatlar qatori qasamyod yakka tartibda, qasamyod matnini o'qish orqali qabul qilinadi. Qasamyod matni advokat tomonidan imzolanadi.²

Demak, Armanistonda advokat faqat birinchi marta litsenziya olayotganda qasamyod qabul qilar ekan. Bu e'tibor qaratishimiz kerak bo'lgan jihat, albatta.

Qo'shni mamalakatlardan bo'lmish Qozog'iston Respublikasi qonunchiligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda advokatlar kollegiyasiga a'zo bo'lgan litsenziat yuqoridagi davlatlarnikida kelgan mazmundagi qasamyodni qabul qilishi belgilangan. So'ngra advokat qasamyod mazmunini imzolaydi va u saqlab qo'yiladi. Qozog'istondagi advokatlar kollegiyasi a'zolarining ro'yxatini yuritadi va uni yangilagan holda Advokatlar kollegiyasining internet-resursiga joylashtiradi. Hududiy advokatlar kollegiyasi advokat maqomiga ega bo'lish, to'xtatib turish va tugatish to'g'risidagi ma'lumotlarni Respublika advokatlar kollegiyasiga yuboradi.³ Ayni shu missiya jihatidan Advokatlar kollegiyasi bizning mamlakatdagi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzurida tuzilgan malaka komissiyalari o'rnida faoliyat olib borar ekan.

Litva Respublikasi qonunchiligini tahlil qilganda esa, ularda advokatlarga 2 xil qasamyod matni variant qilib berilishi, advokat ixtiyoriy ravishda ulardan birini tanlashga haqli ekanligini guvohi bo'lamiz. Mazkur qasamyodni Adliya vaziri qabul qiladi. Advokat mantiya kiygan holda qasamyod qabul qiladi. Qasamyod matni e'lon qilingandan keyin advokat uning ostiga o'z imzosini qo'yadi. Qasamyod matni saqlab qo'yiladi. Litvada advokat qasamyodini qabul qilish to'g'risidagi ariza Adliya

¹²⁴ «The law on the advocates profession». 26 may, 1982.

¹²⁵ « Закон Республики Армения об адвокатуре» статья 32

¹²⁶ «Закон Республики Казахстан об адвокатской деятельности и юридической помощи» с изменениями и дополнениями по состоянию на 01.07.2021 г.

vaziriga berilgan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay qabul qilinishi kerak. Shu o'rinda e'tibor qaratish kerak bo'lgan yana bir jihat, ushbu davlatda amaldagi advokatlarning ro'yxatiga qaytadan kiritilgan advokat yana qasamyod qilolmaydi, bundan shaxsni advokat deb tan olish to'g'risidagi qarorni haqiqiy emas deb topish hollari mustasno.¹²⁷

Yuqoridagi xorij davlatlarining advokat qasamyodiga doir qonunlarini o'rganib chiqib, milliy qonunchiligimizga bu borada quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

Birinchidan, qasamyod matniga alternativ variant kiritish, xuddi Litva Respublikasidagi kabi. Bu variant mazmun jihatidan birinchi variantga yaqin bo'lishi maqsadga muvofiq. Ehtimol, bu juda katta o'zgarish emasdur, biroq qasamyod bobida advokatlarga kichik bir tanlov imtiyozini bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, advokat qasamyodi aslida advokatning butun bir faoliyatiga qo'yilgan yuksak talabni aks ettirishi kerak. Shu bois ham milliy qonunchiligimizdagi qasamyod matnini qayta tahlil qilish, ya'ni uni advokat amal qilishi kerak bo'lgan boshqa prinsiplar bilan boyitish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu masalada Florida shtatidagi advokat qasamyodining matni ajoyib tajriba bo'lib xizmat qilgan bo'lar edi. Boisi u mazmun jihatidan keng qamrovli bo'lib, nafaqat advokat, balki har bir huquqshunos amal qilishi kerak bo'lgan prinsiplarni o'zida mujassam etgan. Advokatga bunaqa talab qo'yilishi esa, o'z navbatida, advokatura institutini rivojlanishiga, mamlakatda malakali, adolatli advokatlar yanada ko'payishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, advokat o'z faoliyati davomida faqat bir marotaba qasamyod qilish amaliyotini yo'lga qo'yish kerak. Chunki qasam muqaddas hisoblanadi. Qayta-qayta qasam ichish esa qaysidur ma'noda qasamga bo'lgan hurmatsizlik hisoblanadi. Bu tajribani biz yuqorida Litva va Armaniston Respublikalarida ko'rdik, ya'ni advokatlarning ro'yxatiga qayta kiritilgan advokat qasamyod qilolmaydi. Estetik jihatdan ham bu to'g'ri desak, o'ylaymizki, adashmagan bo'lamiz.

To'rtinchidan, rivojlangan xorijiy davlatlar qonunchilik tizimida keng qo'llab kelinayotgan "Smart clause" usulini advokatlikka doir qonun-hujjatlariga nisbatan qo'llash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ya'ni bir

¹²⁷ <https://e-seimes.Irs.It/portal/legalActprint/It?jfwid=tu0odnllitdocumentId=TAIS.450539category=Tad>

necha qonunlarni jamlab, bitta yakdil qonun hosil qilish. Boisi e'tibor beradigan bo'lsak, advokatlik qasamyodida advokat advokatlik sirini saqlashga qasamyod qiladi. Advokatlik siri esa "Advokatura to'g'risida"gi qonunda berilgan bo'lsa, Advokat qasamyodi "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy hmoyasi to'g'risida"gi qonunda belgilab qo'yilgan. Bu qonunlarni birlashtirish, nafaqat advokatlar, balki barcha shaxslar uchun qulaylik yaratar edi hamda qonunchilikda ham soddalashtirish orqali bu sohadagi qonunlarni tartibga solishda samarali usul bo'lar edi.

Beshinchidan, e'tibor qaratadigan bo'lsak, advokat advokat qasamyodini buzganlik uchun intizomiy javobgarlikka tortiladi. "Advokatura to'g'risida"gi qonunda advokat qanday holatlarda intizomiy javobgarlikka tortilishi sanab o'tilar ekan, advokat qasamyodini, advokatlik sirini buzish holatlari alohida asos sifatida sanab o'tiladi. Advokat qasamyodini matniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, advokat advokatlik sirini saqlashga qasamyod qilish talabi ham qo'yilganiga guvoh bo'lamiz. Bu esa advokat advokatlik sirini saqlolmasa, qasamyodni ham buzganligini anglatadi. Intizomiy javobgarlikka tortishda har ikkisini alohida asos sifatida keltirilishi mantiqiy jihatdan o'ylab qaraganda xato bo'ladi. Va noaniqlikni yuzaga keltiradi. Shu bois intizomiy javobgarlikdagi asoslardan advokatlik sirini chiqarib tashlasa ham bo'ladi. Boisi qasamyodni buzganlik asosi qasamyod matnida advokatlik siri ham mavjud bo'lganligi bois uni o'z ichiga qamrab olishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, advokat qasamyodi advokatning butun faoliyatini belgilab beruvchi me'zon, uning faoliyatiga qo'yilgan qat'iy talablarni aks ettiruvchi oyna bo'lib xizmat qilishi kerak. Ya'ni, advokat o'sha oynaga har qaraganda o'zini haqiqiy, adolatli advokat sifatidagi imijini ko'ra olishi kerak. Shu bois ham qonunshunoslarimiz advokat qasamyodi borasida xorijning ijobiy yutuqlaridan foydalanib, advokatura institutini yanada rivojlanishi, halol, vijdonli va adolatli advokatlarni yanada ko'payishiga xizmat qiladigan ijobiy islohotlar qilishlari, o'ylaymizki, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Zero, mana shunday advokatlar inson huquqlari va erkinliklarining chinakam kafoloti va haqiqiy himoyachisi bo'la oladi. Bunda esa advokatlik qasamyodi va unga qo'yilgan talablar muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Неъматов, Ж. "Уголовно-правовые проблемы борьбы с организованной преступностью по законодательству Республики Узбекистан." Российская юстиция 8 (2006): 64-66.

SH.V.MULLAYEV¹²⁸

**ADVOKATLIK FAOLIYATINI LITSENZIYALASH:
MUAMMOLAR, XORIJ TAJRIBASI,
QONUNCHILIKKA TAKLIF**

Inson huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilinishi nafaqat sud-huquq tizimini isloh qilinishi, balki mamlakatdagi advokatura institutini qanchalik taraqqiy etganligiga bevosita bog'liqdir. Bu kabi vazifa o'z navbatida mazkur soha qonunchiligini zamon talablariga qarab takomillashtirib borish naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Shu o'rinda milliy qonunchilikni xorijiy mamlakatlarning qonunchiligi bilan qiyosiy o'rganish orqali uning afzallik va kamchiliklarini aniqlash sohani rivojlantirish istiqbollarini chuqurroq anglab yetishga yordam beradi. Advokatura qonunchigini takomillashtirishda qonun loyihalarini xorijiy huquqiy amaliyot bilan har tomonlama chuqur qiyosiy tahlil qilish ularni tayyorlash ishlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Chindan ham advokatura qonunchiligini takomillashtirishda xorijiy davlatlarning mazkur sohadagi qonunchiligini tahlil etish va qiyosiy huquqshunoslikning keng imkoniyatlaridan foydalanish milliy qonunchilikni rivojlantirish istiqbollarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati litsenziyalangan, ya'ni shug'ullanish litsenziya talab qiladigan faoliyat turlari ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, ushbu litsenziyaga ega bo'lish o'z navbatida talabgor oldiga bir qator talablarni qo'yadi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, malaka imtixonini muvaffaqiyatli topshirgan talabgorga litsenziya Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan

¹²⁸ Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti 3-bosqich talabasi